

## TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA QO'LLANILAYOTGAN ZAMONAVIY METODIKALAR

Maxkamov Baxtiyor Mirxodiyevich

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10633629>

*Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san'atni o'qitishda qo'llanilayotgan zamonaviy metodikalarning ahamiyati xaqida, o'qitish qonun-qoidalari, ijodkor pedagog oldida turgan vazifa va uni qay tarzda bajarishni yo'l yo'riqlarini ko'rsatib berishga harakat qildindi. Shuning uchun ushbu maqolada tasviriy san'atni o'qitishda qo'llanilayotgan zamonaviy metodikalari haqidagi nazariy va metodik ma'lumotlar keng va atroflicha yoritildi.*

*Kalit so'zlar: tasviriy san'at, zamonaviy metodikalar, interaol metodika, individual metodika, modellashtirish.*

### MODERN METHODOLOGIES USED IN THE TEACHING OF FINE ARTS

*Abstract. In this article, you tried to show the importance of modern methodologies used in the teaching of Fine Arts, the rules of teaching, the task facing the creative educator and the instructions for how to perform it. Therefore, in this article, the theoretical and methodological information about the modern methodologies used in the teaching of Fine Arts was comprehensively and comprehensively covered.*

*Keywords: Fine Arts, modern methodologies, interaolic methodology, individual methodology, modeling.*

### СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ

*Аннотация. В данной статье была сделана попытка рассказать о значении современных методик, применяемых при обучении изобразительному искусству, показать закономерности обучения, задачу, стоящую перед творческим педагогом, и пути ее выполнения. Поэтому в данной статье была широко и подробно освещена теоретико-методическая информация о современных методиках обучения изобразительному искусству.*

*Ключевые слова: изобразительное искусство, современные методики, интерактивная методика, индивидуальная методика, моделирование.*

Mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan respublikamiz cheksiz kelajakli va nurafshon tarixiy jarayonning boshida turibdi. "Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish lozim"<sup>1</sup> Mamlakatni barcha sohalarini rivojlantirishda eng avvalo yoshlarni ta'lim tarbiyasi eng muhim o'rinda turadi.

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyev 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda yosh avlod tarbiyasi haqida so'zlagan nutqi.

Yurtboshimiz ham biz yoshlarning bilim olishimiz uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratmoqdalar. “Agar mendan sizni nima qiyaydi?”<sup>2</sup> deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman degan edi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Halqimiz o‘zini siyosiy va ma’naviy mustaqilligini tobora aniqroq tushunib etmoqda. U eski mafkuraning va mutelik psixologiyasining kishanlaridan tozalanib, o‘z tarixiga, hozirgi kuni va istih boliga boshh acha ko‘z bilan qaramoda. Milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish yo‘lidan bormoqda. Asriy an’analarga ega milliy urf-odatlar, nishonlanadigan bo‘ldi. Sho‘ro mafkurasi inkor etgan tarixiy qadriyatlar, siymolar, manba’lar, madaniy boyliklar kayta tiklanildi. Amir Temur, Bobur, Ahmad Yassaviy, At-Termizi, Bahovuddin Naqshband kabi ulug siymolarning taqdidi, hayoti, merosi ma’naviyatimizga qaytarilayotgani istiqqlolning bebaho g’alabalaridir.

Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jahoning rivojlangan davlatlari qatoriga qo‘shilishida albatta xalqimiz madaniyati, ma’rifati, san’ati va manaviyatining roli beqiyosdir. Xalqimiz ma’naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san’atning ham o‘z o‘rnii bor. Hozirgi davrda har sohada bo‘lgani kabi tasviriy san’atda ham katta o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi so‘zsiz, tasviriy san’atning ifoda vositalari haqida chuqur ma’lumotga ega bo‘lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo‘llarini mukammal egallashlari kerak. Tasviriy san’at o‘qituvchisining o‘zi qalam va bo‘yoqlar bilan rangda ifoda etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi bilan birga, bu sohadagi bilimlarini o‘quvchilariga ham yetkaza olishi zarur. Buning uchun o‘qituvchilar o‘z mutaxassislik fanlarini o‘qitichda turli zamonaviy metodikalardan foydalanmog’i lozim.

O‘qituvchi o‘qitish metodlariga asoslanib ish yuritganda mutaxassislik fanlaridan kelib chiqadi. Tasviriy san’atning nazariy asoslarini yoki faoliyat turini o‘qtganda o‘qituvchi bir xil metodlardan foydalanishi mumkin emas.

O‘qitish metodikasini o‘rganadigan bo‘lsak, uning tarixi juda uzoqlarga ya’ni kishilar qachon birbirlariga rasm chizishni o‘rgata boshlagan paytlariga borib taqaladi. U kishilik jamiyatining taraqqiyoti davrida takomillashib brogan bo‘lib, davr o’tishi bilan o‘qituvchilar, olimlar uning yangidan-yangi qirralarini ochganlar va u mutaxassislar orasida keng tarqala boshlagan. Shuni xam qayd qilish lozimki, shakllangan har bir metod shaklan bir xil bulsada, uni bir o‘qituvchi, ikkinchi o‘qituvchidan o‘rganib, shundayligicha qo’llayvermaydi. Uni xar bir o‘qituvchi o‘z maktabidagi moddiy-texnikaviy shart-sharoitlar, bolalarning bilim va malakalarining saviyasi, dars mavzusi uning o‘ziga xos xususiyatlari va boshqa shu kabilarni hisobga olishi lozim. Shunga ko‘ra boshka o‘qituvchi qo’llayottan va yaxshi samara berayotgan bir metod boshqa o‘qituvchi faoliyatida yaxshi natija bermasligi ham mumkin.

Shuning uchun qo’llashga mo’ljallangan har bir metod pedagogik faoliyat davomida tajriba-sinovdan o’tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Sinov bir marta emas, bir necha marta o’tkazilishi lozim. Chunki, bir guruhga mo’ljallangan metodika boshqa vaqtida yuqorida qayd qilinganidek, sharoitga qarab boshqa guruhda boshqacha natija berishi mumkin. Tanlangan va qo’llanib kelinayotgan har bir metod shaklan o‘zgarmay qolsa ham, mazmunan o‘zgarishi ham mumkin.

<sup>2</sup> Shavkat Mirziyoyev 15-iyun kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzuidagi anjumanda yosh avlod tarbiyasi haqida so‘zlagan nutqi.

Biz tasviriy san'at sohasi mutaxassislari sifatida talabalarga bilim berishda turli metodlardan foydalanishimiz lozim. Tasviriy san'atni o'qitishda ta'limga innovatsion yo'nalganligi, ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, ilg'or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilmog'i lozim. Shu bilan bir qatorda, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi.<sup>3</sup> Bu esa o'z navbatida tasviriy san'at o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma'ruza, trening, videotrening, internet innovatsion o'qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratinini yuzaga chiqaradi.<sup>4</sup>

Yuqorida metodlardan foydalangan holda tasviriy san'at fanlarini o'qitilishi talabalarni darsni yanada chuqurroq o'zlashtira olishlarini kafolatlaydi.

Eng avvalo tasviriy san'atni o'qitishda talabalar bilan individual ishlashning ahamiyati katta. Bu metod yordamida qoloqlarsiz o'qitish darajasiga erishish mumkin. Bundan tashqari tasviriy san'at o'quv-ijodiy ustahonalari yetarlicha yorug' va keng bo'lishi kerak. Yorug'lik normal bo'limgan joyda ko'rish sezgilariga zo'r berish zararlidir. Bunday xollarda o'quvchilarning tez charchashlari oqibatida darsga bo'lgan qiziqishlari sustlashishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda interfaol metodlardan ham foydalanish darsni sifatli tashkil etishda ahamiyatli hisoblanadi.

Interfaol o'qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo'lib, interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi o'qitishning ob'ektidan o'zaro hamkorlikning sub'ektiga aylanishi, o'quv jarayonida faol ishtirot etishi bilan tavsiflanadi. O'qitishning interfaol metodlari hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o'yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko'rib chiqiladi.

Interfaol o'qitish talabalardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta'lim maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin.

Ta'lim jarayonini innovation usullardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo darsning rejasи va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish usullaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. Faol tanlashda ko'proq interfaol usullarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi.

<sup>3</sup> A. I. Avazboyev. Y. U. Ismadiyarov. "Kasbiy pedagogika" Toshkent: Cho'lpon nomidagi ijodiy matbaa uyi. 2014 y.

<sup>4</sup> A. I. Avazboyev. Y. U. Ismadiyarov. "Kasbiy pedagogika" Toshkent: Cho'lpon nomidagi ijodiy matbaa uyi. 2014 y.

Interfaol usullar – bu o‘zaro harakat, ya’ni hamkorlik asosida o‘qitish demakdir.<sup>5</sup>

Ma’lumki bugini kundagi tasviriy san’atni o‘rgatish metodikasi birdaniga shakllangan emas, bunga qadar mazkur metodikaning shakllanishi murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi desak mubolag’a bo‘lmaydi. Respublikamizda tasviriy san’atni o‘rgatish metodikasining shakllanishida mahalliy olimlar, metodistlarning qator izlanishlari, o‘quv qo‘llanmalarining ahamiyati juda katta o‘rin tutadi. Badiiy pedagogika metodika sohasidagi so‘ngi yutuqlari ko‘rsatilgan va talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish o‘qitish san’atini egallashiga yordam berishni o‘ziga asosiy maqsad qilib qo‘yan. O‘qituvchi tasviriy va amaliy san’at darslarining tashkilotchisi, rahbari va ilhomchisi.

Tasviriy san’at muallimi – ilmiy izlanuvchan ijodkor. Rassom o‘qituvchilar qayerda, qanday o‘quv maskanida ta’lim jarayonini olib borishidan qat’iy nazar pedagogik faoliyati ijodiy izlanishlar bilan boyitib borsa, shundagina yaxshi shogirdlar, haqiqiy rassomlarni shakllanitirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tasviriy va amaliy san’at o‘qituvchisining o‘z sohasidagi savodxonligi yetarli darajada bo‘lsagina o‘quvchilar bilan yonma-yon o‘tirib o‘zlari amaliy namuna ko‘rsata oladilar.

O‘shandagina o‘quvchilar o‘z ko‘zlari bilan murabbiy rassomning egallagan mahorat sirlarini amaliy ishlarida ko‘rib ruhan his qiladi hamda san’atning nozik sirlarini tushunib yetishishiga imkoniyatlari kengayadi.

Tasviriy san’at mashg‘ulotlari har tomonlama rivojlangan insonning tarbiyalashi uchun boy imkoniyatlar ochib beradi. Tasviriy san’at bilan shug‘ullanish bolalarning aqliy va estetik jihatdan rivojlantiradi, dunyonи tushunishiga ko‘maklashadi, buyumlarni e’tibor bilan kuzatishga, ularning shaklini tahlil qilishga o‘rgatadi. Tasviriy san’atdan savodni chiqarmasdan turib, kishi san’atni tushunishi ham, qadrlashi ham, undan huzur qilishni ham bila olmaydi. Bolalar tarbiyasida zamondoshlarimiz mehnatini go‘zalligini ko‘rsatishga, mustaqil davlat taraqqiyoti yutuqlarini o‘rganish alohida o‘rin egallaydi. Bu o‘quvchilarning ijodiy aktivligini oshirishga ularning kuchini, ma’naviy quvvatini yangi hayot qurish uchun kurashga safarbar etishga ko‘maklashadi.

## REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoyev 15-iyun kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda yosh avlod tarbiyasi haqida so‘zlagan nutqi.
2. X. Ibragimov. "Pedagogika nazariyasi". Toshkent : Fan va texnologiya nashriyoti. 2008 y.
3. A. I. Avazboyev. Y. U. Ismadiyarov. "Kasbiy pedagogika" Toshkent: Cho’lpon nomidagi ijodiy matbaa uyi. 2014 y.
4. Abdirasilov S.F., Boymetov B.B., Tolipov N.X. Tasviriy san’at.–T.: 2010 35 b
5. Botir Boltabayevich Baymetov, Laylo Mirsoatova “Oliy pyedagogik ta’limda inson qomatini tasvirlashning nazariyasi va metodikasi” maqolasi "Science and Education" Scientific Journal November 2020 G’ Volume 1 Issue 8.

<sup>5</sup> X. Ibragimov. "Pedagogika nazariyasi". Toshkent : Fan va texnologiya nashriyoti. 2008 y.